



ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Andijon viloyatida qurilish sohasini rivojlantirish

2023-YIL
YANVAR-MART

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi


Qurilish ishlari hajmi,
mlrd so‘mda



2023- yil yanvar-mart oylarida, Andijon viloyatida jami **1 215,2 mlrd so‘mlik** qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etdi.




Yillar kesimida o’sish sur’ati
Mart oyi bo‘yicha



Ma’lumot uchun: qurilish faoliyati – bu, o‘z-o‘zidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Andijon viloyati qurilish ishlari

Shahar va tumanlarkesimida, mld so'mda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlami belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 75,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,4 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 97,4 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,8 foiz ulushni va 104,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd so'm



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2023- yil yanvar-mart

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlami qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **63,5 %** yoki **771,6 mlrd so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlami yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 18,9 mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 584,9 mlrd so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 75,8 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 167,8 mlrd so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	771,6	100,0
Andijon sh.	278,8	36,1
Xonobod sh.	23,8	3,1
Oltinko'l	29,2	3,9
Andijon	101,3	13,1
Baliqchi	14,8	1,9
Bo'ston	32,8	4,2
Buloqboshi	13,1	1,7
Jalaquduq	28,4	3,7
Izboskan	26,8	3,5
Ulug'nor	13,9	1,8
Qo'rg'ontep'a	25,0	3,2
Asaka	26,2	3,4
Marhamat	39,2	5,1
Shahrixon	68,6	8,9
Paxtaobod	27,2	3,5
Xo'jaobod	22,5	2,9

*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

2023- yil yanvar-mart oylariga shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Andijon shahri (278,2 mlrd so'm), Andijon tumanida 101,3 mlrd so'm), Shahrixon tumanida (68,6 mlrd so'm) va Marhamat tumanida (39,2 mlrd so'm) qayd etildi.

2023-yil yanvar-mart oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Bino va inshootlami qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,7 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,3 % punktga ko'payib, 79,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoming ulushi esa 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,9 % punktga kamayib, 20,2 % ni tashkil etdi.

Jamiga nisbatan ulushi



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

O'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish

32,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari

109,1%

Kichik korxona
va mikrofirmalar

73,4 %

Norasmiy sektor


Bino va inshootlar qurilishi 2023- yil yanvar-mart oylari uchun

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati
(oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlami qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'ati Ulug'nor tumani (2022- yilga nisbatan 155,4 %), Jalaquduq tumani (2022- yilga nisbatan 167,7 %)ga to'g'ri keldi.


2023-yil yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,0 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 7,7 % punktga ko'paydi.

kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 7,7 % punktga kamayib 91,0 % ni tashkil etdi.

Jamiga nisbatan ulushi



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar

O'sish sur'ati

Fuqarolik obyektlarini qurish



6,4 m

Yirik qurilish tashkilotlari

89,9 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar

-


Norasmiy sektor

2023- yil yanvar-mart oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari


Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati

(oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori o'sish sur'ati Izboskan tumani (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 348,2 %), Bo'ston tumani (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 284,5 %), Xo'jaobod tumani (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 166,9 %) va Baliqchi tumani (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 157,6 %).

2023-yil yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi va 0,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 98,8 % kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.



O'sish sur'ati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



39,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

104,6 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2023-yil yanvar-mart oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati

(mlrd so'm va foizda)




Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Qo'rg'ontepa tumani (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1 253,9 %), Marhamat tumani (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 370,3 %), Baliqchi tumani (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 287,3 %) va Xonobod shahar (2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 242,1 %)ga to'g'ri keldi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **28,3** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **1 186,9** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyyatdagi ulushi mos ravishda **2,3 %** va **97,7 %** ni tashkil etdi.



yanvar-mart oylarida hajm, mlrd so'm

Davlat mulki

Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiylajmining 100,0 foizi), Xo'jaobod tumanida (qurilish ishlari umumiylajmining 100,0 foizi) va Paxtaobod tumanida (ushbu tumanidagi umumiylajmining 100,0 foizi) qayd etildi.

28,3
mlrd so'm
Davlat mulki

1186,9
mlrd so'm
Nodavlat mulk

2023- yil 1- aprel holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- bino va inshootlar qurilishi 58,1 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 80,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 11,0 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30,9 %, o'sish sur'ati 81,5 % ni tashkil etdi.

